

## O'ZBEKİSTONNING XALQARO MOLİYA TASHKİLOTLARI BİLAN MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH İSTİQBOLLARI

**Ortig'aliyeva Farangiz-bonus Ravshanbek qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot unverstiteti

ORCID: 0009-0005-9461-4859

[f.ortigaliyeva@tsue.uz](mailto:f.ortigaliyeva@tsue.uz)

**PhD, dots. Shamansurova Zilola Abduvahitovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-5152-3518

[z.shamansurova@tsue.uz](mailto:z.shamansurova@tsue.uz)

**Annotatsiya.** Maqolamizda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ahamiyati va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, hamda O'zbekistonning bugungi kundagi xalqaro moliya tashkilotlari bilan moliyaviy munosabatlari tahlili va ular o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish istiqbollari haqida so'z yuritiladi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki misolida hamkorlikning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng xalqaro moliya institutlar bilan faol aloqalarni yo'lga qo'ydi. Jumladan, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqalash, ta'lim, infrotuzilma, energetika, qurilish sohalarida bir qancha yirik loyihalarni amalga oshirdi. So'ngi yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish va investitsion jozibadorlikni oshirish borasidagi islohotlar hamkorlikni yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Maqolada o'zbekistonning bu tashkilotlar bilan uzoq muddatli strategiyalar orqali barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, inklyuziv iqtisodiyot, kambag'allikni qisqartirish, bandlikni taminlash va zamonaviy infrotuzilmani yaratishga qaratilgan istiqbolli loyihalari yoritilgan. Ushbu hamkorlik natijasida mamlakatimizning global iqtisodiyotga integratsiyasini kuchayishi ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro moliya tashkilotlari, moliyaviy munosabatlari, iqtisodiy hamkorlik, iqtisodiy rijovlanish, Xalqaro Valyuta Fondi (XVJ), Jahon Banki, qarz yuki, budget taqchilligi, davlat xususiy sherikchiligi(DXSH), xalqaro integratsiya.

## ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ

**Ортигалиева Фарангиз-бону Равшанбек кизи**

Ташкентский государственный экономический университет

К.э.н., доц. **Шамансурова Зилола Абдувахитовна**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В нашей статье рассматривается значение международных финансовых организаций и их роль в развитии экономики, а также финансовые отношения Узбекистана с международными финансовыми организациями сегодня. обсуждаются анализ отношений и перспективы расширения сотрудничества между ними. Основные направления сотрудничества анализируются на примере Международного валютного фонда (МВФ) и Всемирного банка.

После обретения независимости Узбекистан наладил активные отношения с международными финансовыми институтами. В частности, он реализовал несколько масштабных проектов в сферах сельского хозяйства, транспорта, здравоохранения, образования, инфраструктуры, энергетики и строительства. В последние годы либерализация экономики и реформы по повышению инвестиционной привлекательности привели к дальнейшему расширению сотрудничества. В статье описаны перспективные проекты Узбекистана с этими организациями, направленные на устойчивое развитие, зеленую экономику, инклюзивную экономику, сокращение бедности, обеспечение занятости и создание современной инфраструктуры посредством долгосрочных стратегий. В результате этого сотрудничества ожидается усиление интеграции нашей страны в мировую экономику.

**Ключевые слова:** международные финансовые организации, финансовые отношения, экономическое сотрудничество, экономическое развитие, Международный валютный фонд (МВФ), Всемирный банк, долговое бремя, бюджетный дефицит, государственно-частное партнерство (ГЧП), международная интеграция.

## PROSPECTS FOR DEVELOPING UZBEKISTAN'S RELATIONS WITH INTERNATIONAL FINANCIAL ORGANIZATIONS

*Ortigaliyeva Farangiz-bonu Ravshanbek kizi*

*Tashkent State University of Economics*

*PhD, assoc. prof. Shamansurova Zilola Abduvahitovna*

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** Our article discusses the importance of international financial organizations and their role in economic development, as well as an analysis of Uzbekistan's current financial relations with international financial organizations and the prospects for expanding cooperation between them. The main areas of cooperation are analyzed using the example of the International Monetary Fund (IMF) and the World Bank.

After gaining independence, Uzbekistan established active relations with international financial institutions. In particular, it has implemented a number of major projects in the fields of agriculture, transport, healthcare, education, infrastructure, energy, and construction. In recent years, reforms aimed at liberalizing the economy and increasing investment attractiveness have led to further expansion of cooperation. The article highlights Uzbekistan's promising projects with these organizations aimed at sustainable development, green economy, inclusive economy, poverty reduction, employment generation, and creation of modern infrastructure through long-term strategies. As a result of this cooperation, it is envisaged that our country will strengthen its integration into the global economy.

**Keywords:** international financial institutions, financial relations, economic cooperation, economic development, International Monetary Fund (IMF), World Bank, debt burden, budget deficit, public-private partnership (PPP), international integration.

### Kirish.

Bugungi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida Xalqaro moliya tashkilotlarining mamlakatlar bilan moliyaviy munosabatlari iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekistonda ham Xalqaro moliya tashkilotlari bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish moliya bozorlarini rivojlantiribgina qolmay, iqtisodiyotni rivojlantirish va integratsiyalash, modernizatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish, raqobatbardoshlikni oshirish, jahon bozorlarida mustahkam o'r'in egallash, eksport salohiyatini oshirish, yalpi ichki mahsulot hajimining o'sishi, kapital jalb qilish kabi boshqa bir qator sohalarni rivojlanishiga

sabab bo'lmoqda. Jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi "xalqaro moliya institurlari bilan O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini tashkil etish"<sup>23</sup>, "Soliq tizimining barqarorligini ta'minlash, soliq tizimini to'liq raqamlashtirish"<sup>24</sup>, "Yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish"<sup>25</sup> kabi ishlarni amalga oshirish jarayonlari boshlangan.

Bundan tashqari Xalqaro moliya tashkilotlari jahon xo'jaligining umumiyligi tendensiyalari hamda biror mamlakatning iqtisodiy holati bo'yicha ham axborot to'playdi, moliya siyosatini o'rnatish bo'yicha kerakli maslahatlarni beradi, xalqaro moliya munosabatlarini tartibga soladi va jahon iqtisodiyoti yoki davlatlarning kelgusidagi iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha proqnozlar qiladi. Hozirgi vaqtga kelib mamlakatimizda ham bir qator xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va uzoq muddatli hamkorlikka erishish borasida ishlar olib borilmoqda. Jumladan, energetika, sog'liqni saqlash, uy-joy qurish, kommunal xizmat, ta'lim, magistral yo'llar qurish va boshqa bir qator sohalarda moliyaviy yordamini ko'rish mumkin.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Bu mavzu bo'yicha izlanishlarni o'rganar ekanmiz Nobel mukofoti sovrindori Joseph Stiglitz Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki faoliyati bo'yicha keng qamrovli izlanishlar olib borgan. Uning "Global mashuv va uning salbiy oqibatlari" mavzusidagi kitobida bu haqda kengroq ma'lumot berib o'tgan va o'z xulosalarini keltirgan. Stiglitz ta'kidlashicha "bozor munoabatlari Adam Smithning "ko'rinxmas qo'l" nazariyasiga ko'ra tartibga solinishi, Xalqaro valyuta fondi va Jahon banking rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga nisbatan "bir xil andoza" asosidagi yondashuvini samarasiz ekanligini, har bir mamlakatning joylashgan hududi va uning o'ziga xos iqtisodiyotini inobatga olgan holda hamkorlik qilish zarurligini, Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning shaffofligini va hisobdorligini oshirish masalalari" (Joseph, 2002) bo'yicha o'z xulosalarini berib o'tgan. Robert Wade (2003) ham o'z izlanishlarini Xalqaro moliya tashkilotlari va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha olib borgan. Uning "Jahon savdo tashkiloti va rivojlanish imkoniyatlarining qisqarishi" mavzusidagi maqolasida Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro moliya tashkilotlari bilan munosabatlarini, Global moliyaviy institutlarining rivojlanish strategiyalariga ta'sirini, mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini shakillantirish imkoniyatlarini keng tahlil qilgan. Izlanishlari natijasida, – "mamlakatlar Xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilish jarayonida milliy manfaatlarini himoya, institutsional salohiyatni mustahkamlash, davlatlarning iqtisodiyotni tartibga solishda o'z o'rniga ega bo'lishi kerakligi, makroiqtisdiy barqarorlikni ta'minlash uchun islohotlar o'tkazish, mamlakat hududida raqobatbardoshlik muhitini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro aloqalarni muvozanatlari olib borish" kabi tavsiyalarini berib o'tgan.

Oksana Savinaning (2008) "Moliyaviy bozorlarni tartibga solish" mavzusida ilmiy ishida shunday xulosa berib o'tgan: "Xalqaro moliya tashkilotlari va davlat moliyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik hukumatlar bilan amalga oshiriladigan qarz, grant, kreditlar va boshqalar ifodalanadi. Birinchidan, ko'pgina xalqaro moliya tashkilotlari tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra bank institutlar hisoblanadi, shuning uchun tijorat banklari o'ziga xos (kaptal va uni strukturasi, operatsiyalar, risklar, aktiv va passivlarning shakllanish tartibi va boshqalar) barcha xarakteristikalar xalqaro moliya tashkilotlar uchun ham xosdir. Ikkinchidan, markaziy bank yoki vakolatli banklar xalqaro moliya tashkilotlari va davlat o'rtasidagi munosabatlar ishtiroychisidir. Ular xalqaro moliya tashkilotlari bilan moliyaviy resurslar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradilar, tegishli xisoblarga xizmat ko'rsatadi va boshqalar. Uchinchidan,

<sup>23</sup> <https://uzbekistan2030.uz/uz-Latn/strategy> "O'zbekiston - 2030" strategiyasi 61-maqсад.

<sup>24</sup> <https://uzbekistan2030.uz/uz-Latn/strategy> "O'zbekiston - 2030" strategiyasi 56-maqсад.

<sup>25</sup> <https://uzbekistan2030.uz/uz-Latn/strategy> "O'zbekiston - 2030" 59-maqсад.

ayrim xalqaro moliya tashkilotlari xalqaro darajada bank faoliyatini tartibga solish nazoratini olib boradilar". Zamonaviy sharoitlarda xalqaro moliya tashkilotlari quyidagi funktsiyalarni bajaradi (Savvina, 2008):

1. jahon valyuta tizimi va moliya bozorini barqaror faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq bo'lган tartibga soluvchi;
2. dunyodagi krizis ko'rinishlarini bartaraf etish, oldini olish, tartibga solish o'rganish bo'yicha faoliyatidan kelib chiqib, krizisga qarshi tartibga soluvchi;
3. mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish sohasidagi faoliyati bilan bog'liq bo'lган konsolidirlashtiruvchi;
4. milliy iqtisodiyotlar, bozorlar, shuningdek, jahon xo'jaligi va xalqaro moliya bozorini rivojlanish tendensiyalari ham muammolari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish va tahlili bilan bog'liq ilmiy-informatsion;
5. rivojlanayotgan, birinchi navbatda eng kambag'al mamlakatlarga moliyaviy yordam (Savvina, 2008).


Xalqaro hamkorlikdagi bajarilgan ishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ko'rishimiz mumkinki mustaqillikning dastlabki yillarda garchi O'zbekiston bir nechta xalqaro moliyaviy tashkilotlarga a'zo bo'lishligiga qaramay ular bilan amalga oshirgan loyihalari sonining kamligini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabablardan biri iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi, iqtisodiy barqarorlikning pastligi, iqtisodiyotda to'liq integratsiya qilinmaganligi, xalqaro savdo aylanmasi, ijtimoiy rivojlanish darjasи yoki tizimdagи ayrim muammolar sababli ularning talablariga javob berilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Qabul qilingan qarorlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, dastlabki qarorlar xalqaro moliya tashkilotlari ya'ni, XTTB, XTA, OTB, YETTB, ITB,OPEK orqali kafolatlangan qarz yoki investitsiyalar olib kirishga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning qamrovi ichimlik suvi ta'minoti tizmini yaxshilash, infrotuzilmani rivojlantirish, energetika sohasi, uy-joy qurish, kanalizatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash kabi bir qator sohalarni rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, Prezidentimizning Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalarni yanada jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi farmonida (2023) ta'kidlanganidek Iqtisodiyot va moliya vazirligining budget tashkilotlari, davlat korxonalari hamda o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lган yuridik shaxslar tomonidan ijtimoiy soha hamda infratuzilmani rivojlantirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan va jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan (bundan tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan mablag'lar mustasno) to'liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanmani, shuningdek ularning importini 2028-yil 1-yanvarga qadar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin (Farmon, 2023). Bundan ko'rinish turibdiki mamlakatimizda xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'rta va uzoq muddatli hamkorlik va shartnomalarga erishishida soliq va bojaxona to'lovlарini to'lashga imtijoz berish orqali investitsion jozibadorlikni oshirishga e'tibor qaratmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqola nazariy tahlil va analiz metodlaridan foydalangan holda yozilgan. Tadqiqotda O'zbekiston va xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlар, qabul qilingan qarorlar va siyosiy-iqtisodiy usul va metodlardan foydalananligan. Bundan tashqari O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari va ularning xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalari doirasidagi yondashuvlari tahlil qilingan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston bir nechta Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik aloqlarini yo'lga qo'ygan. Ularga Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Jahon banki (World Bank), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Islom taraqqiyot banki (IDB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Xalqaro tijorat banki (ICB) va boshqalar. Misol tariqasida Xalqaro Valyuta Jamg'armasi bilan hamkorlik ishlarini olaylik, tashkilot tavsiyalariga asosan O'zbekiston milliy valyuta ya'nii so'mning erkin konvertatsiyasini boshladi va markazlashtirilgan kurs tizimidan bosqichma-bosqich voz kechmoqda, qarzlarни boshqarish, moliya tizimining islohoti va barqarorligini ta'minlash borasida chora-tadbirlar amalga oshirmoqda, davlat aktivlarini xususiy sektorga o'tkazish, xususiy sektorni rag'batlantirish bo'yicha islohotlar amalga oshirmoqda. Bundan tashqari XVJ har yili iqtisodiy prognozlar va tahlillar taqdim etib, mamlakatimizning makroiqtisodiy vaziyatini baholaydi, bu esa iqtisodiyotimizning global miqyosdagi o'rni va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olishga yordam beradi. 2024-yilgi prognoz ma'lumotlariga ko'ra YaIM 5,6 % va iste'mol narxlari 10,0 %ga o'sishi kutilgan. XVJ ga a'zolikdan buyon amalga oshirilgan kelishuvlar soni 3 ta, to'lanmagan xaridlar va kreditlar - 160,88 mln SDR, maxsus qarz olish huquqi - 419,62 mln SDR, kvota - 551,2 mln SDR<sup>26</sup>. Quyida keltirilgan jadvalda XVJ tomonidan O'zbekistonning yillar kesimidagi YaIM va inflatsiya ko'rsatkichlarini tahlilini ko'rishingiz mumkin.




**1-jadval. XVJning O'zbekiston uchun YaIM va inflatsiya prognoz ko'rsatkichlari**

Pandemiya davrida IMF Response Fund orqali O'zbekistonga 1 mlrd. dollar miqdorda moliyaviy yordam ko'rsatgan, ushbu mablag'lar sog'liqni saqlash tizimiga va iqtisodiyotning ma'lum faoliyatini tiklash va aholini ijtimoiy himoya qilish uchun ishlataligan. Birgalikdagi uzoq muddatli hamkorlik davomida IMF bir nechta kredit liniyalari orqali iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, valyuta kursi tizimini liberalallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun 2020-2021-yillarda jami 1,3 mlrd. dollar dan ortiq mablag' jalb qilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda Jahon Bankining eng yirik hamkorlari qatoriga kirgan - loyihalar portfeli bir necha barobar ko'payib, hozirgi kunda 12 milliard dollardan oshgan. Jahon banki asosan infrotuzilma va energetika sohasi, ijtimoiy sohalarga ya'nii, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish, bank sektori va soliq tizimini modernizatsiya qilish, korporativ boshqaruvni yaxshilashda yordam berib kelmoqda. 2021-yilda Jahon banki ko'magida O'zbekiston hukumati yangi metodologiyani qabul qildi va 2026-yilgacha

<sup>26</sup> <https://www.imf.org/en/Countries/UZB>

qashshoqlik darajasini ikki baravar kamaytirish bo'yicha ulkan milliy maqsadni qo'ydi. Bu uy xo'jaliklarini o'rganish bo'yicha yangi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, qashshoqliknii kamaytirish bo'yicha muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Tahlillar mamlakat milliy standartlar va xalqaro standartlar bo'yicha baholanishi kerak<sup>27</sup>. Milliy farovonlik standartiga ko'ra qashshoqlik darajasi 2023-yilda 2021-yilga nisbatan 17%dan 11 % ga tushdi va 1,6 mln. kishi qashshoqlikdan chiqib ketdi, bu qishloq joylarida 8% ga shaharlarda 4 % ga pasayish kuzatilganligini 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.



**2-jadval. Juhon bankining O'zbekistonga berilgan qashshoqlik darajasi ko'rsatkichlari, yillar kesimida**

Jahon banki odatda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun uzoq muddatli va past foizli kreditlar beradi. 2020-yilda Juhon banki O'zbekistonga 500 mln dollar moliyaviy yordam ko'rsatgan. 2021-yilda iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun esa 400 mln dollar ajratgan. 2023-yilda yirik moliyaviy yordamni nazarda tutib, Juhon banki ishtirokida "Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident qaroriga (2023) muvofiq 2023-2028 yillar davomida amalga oshirilishi rejalshtirilgan "Energetika islohotlari uchun innovatsion ugleod resurslarini qo'llash" loyihasi uchun Juhon banki tomonidan 45,25 mln AQSH dollari moliyalashtirilgan. Bu loyiha mamlakatimiz uchun ahamiyatli bo'lib, yashil energiya va kam uglerodli iqtisodiyotga o'tishda, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashadigan bir nechta yirik iqtisodiy va ekologik yutuqlarga olib keladi.

Bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri O'zbekistonning moliya tashkilotlari bilan xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarini yaxshilash va hamkorlik ishlarini yanada uzaytirishga qaratilgan. Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan moliyaviy munosabatlarida e'tibor qaratiladigan jihatlar mavjud. Ulardan biri tashqi qarzlarni boshqarish muammollari bilan bog'liq. XVJ ning berayotgan qarzlari O'zbekistonga iqtisodiy zaxiralar yaratishda ma'lum bir sohalarni rivojlantirishga hissa qo'shayotgan bo'lsa ham qarz yukining ortishiga olib kelishi mumkin yoki qarz bo'yicha shartlari va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi talablari o'zgarishi ham kelajakdagi qarz yukini kamaytirish masalalari yanada qiyinlashtirilishi mumkin. XVJning moliya siyosati va soliq islohotlariga oid tavsiyalarini davlat tomonidan amalga oshirilmasligi yoki kechiktirilishi natijasida ham bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Xalqaro Valyuta Jamg'armasining tavsiyasiga ko'ra:

<sup>27</sup> <https://blogs.worldbank.org/en/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i>  
Juhon banki elektron saxifasi

- budjet taqchilligini 3-4% darajasida ushlab turish uchun energiya subsidiyalarini optimallashtirish va ijtimoiy xarajatlarning maqsadli boshqaruvini amalga oshirish;
- soliq bazasini kengaytirish, soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va yangi investitsiyalar jalg qilish uchun soliq siyosatini takomillashtirish;
- inflyatsiyani pasaytirish choralarini ko'rish;
- DXSH loyihalari bilan bog'liq fiskal xavflarni boshqarish uchun yillik investitsion cheklovlarni belgilash va loyihalarni qat'iy nazorat qilish;
- Bank nazorati xalqaro standartlaga moslashtirilishi, direktiv kreditlashni qisqartirish va moliyaviy xizmatlarni yanada samarali qilish maqsadida davlat banklarini xususiy lashtirishni davom ettirish nazarda tutilgan.

O'zbekistonning jahon banki bilan munosabatlari mustahkam va ko'p qirrali bo'lsa-da ular doirasida bir qancha muhokamali masalalar mavjud. Misol uchun quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Juhon banking Moliyaviy dastur loyihalari qarz yukining oshib ketmasligi uchun ehtiyyot choralarini ko'tishni talab etadi, bu esa uzoq muddatli loyihalarning samarali va to'g'ri moliyalashtirilishi zarurligini anglatadi. Bu masalaga yechim sifatida qarz boshqaruv strategiyasini tuzish va yuqori daromat keltiradigan loyihalarni moliyalashtirish va jalg qilingan mablag'larning monitoringini ochiq ma'lumotlar sifatida ko'rsatish ko'zda tutiladi.
2. Juhon banki islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab dasturlarni amalga oshiradi, lekin bu bozor iqtisodiyotiga o'tishda ijtimoiy zaif qatlamlarga zarar keltirmaslik muhim masala bo'lib qolmoqda. Bu ucuhn esa ijtimoiy qatlamlarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiya, sug'urta dasturlarini ishlab chiqish taklif qilinadi.
3. Ayrim sohalarda esa davlat korxonalarining xususiy lashtirilishi tengsizlikning kuchayishiga yoki monopoliyaga yo'l ochib berishi mumkin, buning oldini olish maqsadida xalqaro tajribalardan foydalanish zarur.
4. Amalga oshirilayotan loyihalar atrof-muhitga va yashil iqtisodiyot tamoyillariga tahdid solmasligi kerak, buning ustidan nazoratni kuchaytirish va yashil iqtisodiyot tamoyillariga asosan ish olib borilishi maqsadga muvofiq.
5. Juhon banki loyihalarni amalga oshirishda mehnat sharoitlarini yaxshilash va ish o'rinalarini yaratilishiga alohida urg'u beradi va talab qiladi. Mamlakatimizdagi paxta sektoridagi mavjud majburiy mehnat muammolari hal qilingan bo'lsa-da bu yo'nalish asosiy vazifa bo'lib saqlanib qolmoqda, buning asosiy sabablaridan biri mahalliy va xalqaro mehnat huquqlariga doir normative hujjatlatning yetishmasligi deb aytishimiz mumkin.
6. Qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini boshqarish masalalarida ham yordam berishligiga qaramay mintaqadagi boshqa davlatlar bilan kelishmovchiliklar bu jarayonni hal etilishida murakkabligicha qolmoqda,
7. Mamlakatimizda loyihalar va rejalar qabul qilinish jarayonida mahalliy aholi va fuqarolik jamiyatining e'tiborini sustligi ham xalqaro tashkilot uchun rivojlantirilishi kerak bo'lgan masalalardan biri.

### **Xulosa va takliflar.**

O'zbekiston Xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarini yaxshilash va yanada kengaytirish borasidagi islohotlarini va kelgusidagi istiqbollarini "O'zbekiston - 2030" strategiyasining yo'nalish, maqsad va vazifalarida belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Barqaror iqtisodiy o'sish va xalqaro integratsiya jarayonida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish orqali global ishlab chiqarish zanjirida ishtirokini kengaytirish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda investitsiyalar jalg qilish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, jumladan, jahon banki va boshqa xalqaro institutlar bilan islohotlar doirasida hamkorlik qilish, bank tizimini modernizatsiya qilish va xususiy sektorni rivojlantirishga ko'maklashish loyihalari amalda qo'llanmoqda. Ijtimoiy sohalarda, sog'liqni saqlash, ta'lim va ekologik loyihalarni xalqaro kreditlar va grandlar asosida moliyalashtirish va davlat

boshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlashda xalqaro tajribalardan foydalanish kelgusidagi istiqbolli natijalar sifatida ko'rilmoxda.

**Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:**

Farmon (2023) "Xalqaro moliya institatlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalarni yanada jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.11.2023-yildagi PF-195-son.

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.11.2023-yildagi PF-195-son.

Joseph Stiglitz (2002) Joseph Stiglitz "Globallashuv va uning salbiy oqibatlari"  
<http://digamo.free.fr/stig2002.pdf>

Mirziyoyev SH.M. (2021) "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" -Toshkent, O'zbekiston, -464 b.

Qaror (2023) "Jahon banki ishtirokida "energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.08.2023-yildagi PQ-271-son.

Qaror (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.08.2023 yildagi PQ-271-son.

Robert Wade (2003) "Jahon savdo tashkiloti va rivojlanish imkoniyatlarining qisqarishi"  
<https://www.lse.ac.uk/international-development/Assets/Documents/PDFs/csrc-working-papers-phase-one/wp31-the-wto-and-the-shrinking-of-development-space.pdf>

Savvina O.V. (2008) Regulirovanie finansovix rinkov: Uchebnoe posobie. -M.: ITK«DashkoviK», -90 s.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=S\\_7ipzwAAAAJ&citation\\_for\\_view=S\\_7ipzwAAAAJ:Se3iqnhoufwC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=S_7ipzwAAAAJ&citation_for_view=S_7ipzwAAAAJ:Se3iqnhoufwC)